



USTRUSHONA VA SUG'DIYONA VOHALARINING O'ZARO MADANIY ALOQALARI TARIXIDAN

Abduraimov Dilshod Sultanovich

Psixologiya va ijtimoiy fanlar

fakul'teti, tarix kafedrası o'qituvchisi

E-mail: dilshodabduraimov99@gmail.com +998994746897

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif yozma manbalarning nashrlari va arxeologik tadqiqotlar asosida Ustrushona va Sug'diyona vohasida joylashgan qishloqlarning moddiy-madaniy va ijtimoiy aloqalarini turli savdo yo'llari orqali taxlil qilgan va yoritib bergan.

Kalit so'zlar: Ustrushona, Kesh, Nasaf, chegara, devor, migratsiya, etnogenez, yo'llar, urbanizatsiya, Kanpirak, mudofaa.

Аннотация: В данной статье на основе публикаций письменных источников и археологических исследований автор проанализировал и объяснил материальные, культурные и социальные связи деревень, расположенных в Уструшонском и Сугдиенском оазисах, через различные торговые пути.

Ключевые слова: Уструшона, Кеш, Насаф, граница, стена, миграция, этногенез, дороги, урбанизация, Канпирак, оборона.

Annotation: In this article, based on the publications of written sources and archaeological research, the author analyzed and explained the material, cultural and social relations of the villages located in the Ustrushona and Sugdiyona oasis through various trade routes.

Key words: Ustrushona, Kesh, Nasaf, border, wall, migration, ethnogenesis, roads, urbanization, Kanpirak, defense.



Kirish:

Antik davr va oʻrta asrlarda Samarqanddan chiqqan karvonlar Ustrushona va Chochdan oʻtib, Ettisuv tomon yoʻl olgan [1:136-b]. Sugʻdiy savdogar, tadbirkor, hunarmand va dehqonlar turli davrlar va vaziyatlarda Chochning togʻli va togʻ oldi hududlariga ham oʻrnashib, atrofdagi yarim koʻchmanchi va oʻtroq mahalliy (prototurk) aholi bilan birga yashay boshladi. Ular orasida Ustrushonaliklar ham boʻlgan boʻlishi mumkin. Asrlar davomida shakllangan Sugʻd urbanistik madaniyati Ustrushonaga ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Sugʻdliklar Ustrushona taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshganlar.

“Sugʻd” konfederatsiyasining tarixiy-geografik tushunchasi haqida aytilgan koʻplab fikrlar orasida al-Istaxriy eng toʻgʻri nuqtai nazarni ifoda etgan: Movarounnahr – uning (bir qator) mulklari bor. Uning biri Jayhun bilan tutash. Bu “Buxoro” deb ataladi. Qolgan Sugʻd (yerlari) unga tutash va Samarqandga qarashlidir. Buxoro, Kesh, Nasafga kelsak, men ularni asosan Sugʻdga taalluqli deb hisoblayman”[2:16-b].

Ilk oʻrta asrlar davri Sugʻdda hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksalishidagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, hunarmandchilik va savdo markazlari taraqqiyotining ichki, mintaqaviy va xalqaro savdo-iqtisodiy jarayonidagi oʻrni kabi masalalarni oʻrganish Vatan tarixining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Savdo-iqtisodiy aloqalar rivoji bevosita savdo-tranzit yoʻllari va ularda zaruriy shart-sharoitlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Insoniyat tarixida turli oʻlkalar va xalqlararo savdo-iqtisodiy aloqalar rivojida Buyuk Ipak yoʻli muhim ahamiyatga ega boʻlib, uning yoʻnalishlaridagi savdo aloqalarining boshlanishi insoniyat foydali mehnat bilan shugʻullanishni va oʻz mahsulotini oʻzgalar mahsuloti bilan almashtirishni oʻrgangan davriga borib taqaladi. Biroq, ming yillar davomida Buyuk Ipak yoʻli boʻylab olib borilgan keng miqyosli savdo-iqtisodiy aloqalarni doimo bir xil rivojlangan, deb boʻlmaydi. Zero, asosiy savdo aloqalari olib borilgan yoʻllar chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasidagi tarixning turli davrlarida sodir boʻlgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va tabiiy-ekologik jarayonlar xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga va aksincha, inqiroziga sabab boʻlgan.



Sugʻdning Ustrushona bilan chegaralari masalasi muammoli masalalardan hisoblanadi. Sugʻd markazi Samarqanddan uncha uzoq boʻlmagan bugungi Gʻallaorol (60 km), Baxmal (40-45 km) kabi hududlar konfederatsiya tarkibiga kirmagan. Buning oʻziga xos sabablari boʻlganligi shubhasiz. M.Ishoqovning bergan maʼlumotlariga koʻra, buni quyidagicha izohlash mumkin: Sugʻd oʻtroq madaniyat hukmronlik qilgan hudud boʻlib, ushbu mintaqalarda esa turkiy qabilalar taʼsiri kuchli boʻlgan. Bu esa Sugʻd va Ustrushona oʻrtasida oraliq hududlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Shuning uchun ham baʼzida Sugʻd chegarasi Jizzax togʻidan boshlangan deb keltiriladi. Aslida esa siyosiy jihatdan konfederatsiyaning Ustrushona bilan chegaralari Kabudondan (hozirgi Jomboy va qisman Gʻallaorol) topilgan Kampirdevor orqali oʻtgan[3:26-27-b] boʻlsa ajab emas.

Ushbu devor qoldiqlarining gʻarbiy yoʻnalishda bugungi Qoʻshrabot va Metan tumanlari oraligʻida (Qoʻrli qishlogʻi atrofi) oʻtganligi dasht hududining Sugʻdga kirmaganligini bildiradi. Shunday ekan, Sugʻdning Ustrushona bilan chegaralari bugungi Bulungʻur tumanidagi oʻtish yoʻli “Yuqori nuqta” orqali oʻtgan deb hisoblash mantiqan toʻgʻri.

Mintaqada qadimgi savdo-iqtisodiy aloqa yoʻllarining shakllanishi va rivojlanishi murakkab tarixiy jarayon boʻlib, u iqtisodiy xoʻjalik turlarining paydo boʻlishi, tarqalishi va taraqqiy etishi, aholi migratsiyasi va etnogenez jarayonlari, shaharsozlik madaniyati rivoji, oʻzaro mahsulot almashinuvi va savdo-sotiqning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda qator ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar bilan bogʻliq holda kechgan[1:4-b]. Bu jarayonlarni oʻrganish Sugʻdning mazkur davrdagi savdo-iqtisodiy aloqalari tarixini oydinlashtirishda katta oʻrin tutadi. Sugʻdning savdo-iqtisodiy aloqalari tarixini oʻrganishda mazkur davrda faoliyatda boʻlgan, mahalliy (ichki), mintaqaviy va transmintaqaviy (tashqi) aloqalarda katta ahamiyatga ega boʻlgan savdo-tranzit yoʻllari tarixini tahlil etish muhimdir.

Sugʻdning ichki yoʻllari qadimdan mintaqaning nafaqat ijtimoiy, etnik va madaniy, balki savdo-iqtisodiy rivojida ham muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Savdo-alloqa yoʻllarining shakllanishi va rivojlanishi soha mutaxassislarining doimiy diqqat markazida



bo‘lib kelgan. Jumladan, qadimgi davr O‘rta Osiyo urbanizatsiyasi va ilk shaharlari borasida muhim izlanishlar olib borayotgan olim B.Eshov o‘zining “Miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Sug‘diyona tarixi va madaniyati” nomli tadqiqotida qadimgi (ichki) yo‘llar hamda ularning Sug‘diyona taraqqiyotidagi o‘rni borasida muhim xulosalarni keltiradi [4:96-111-b].

Shuni qayd etib o‘tish lozimki, mintaqada hukmronlik qilgan turkiy sulolalar davrida O‘rta Osiyoda mahalliy boshqaruv tizimi deyarli to‘laligicha saqlab qolindi. Markaziy hokimiyat bilan bo‘lgan munosabat va tegishli ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat sababli Sug‘dning ko‘rilayotgan davr savdo-iqtisodiy aloqalardagi ishtiroki va mavqei barqaror rivojlanib bordi.

VI asrning oxirlaridan e‘tiboran Sug‘d savdo ahli Amudaryoning o‘ng sohili bo‘ylab daryoning quyi oqimida joylashgan Kat shahri orqali shimoliy yo‘nalishda ham faol savdo-sotiq olib borganlar. Shubhasiz, Sug‘dning va mintaqaning savdo-iqtisodiy aloqalarida Samarqand shahri hamda Samarqand Sug‘dining savdo-tranzit yo‘llari alohida ahamiyatga egadir. Zotan, manbalarda Samarqand yirik savdo markazi ekanligi, shu sababdan bu erga juda ko‘plab mamlakatlardan tijorat maqsadlarida savdogarlar kelishi ta’kidlab o‘tilgan[5:251-b]. Shuningdek, Samarqand Sug‘dining Zarafshon daryosi o‘ng sohilida joylashgan rustoqlaridan o‘tgan savdo-tranzit yo‘llari orqali Choch, Farg‘ona, Sharqiy Turkiston o‘lkalari va Xitoy bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda muhim markazi ham hisoblangan. Janubi-sharqiy yo‘nalishda Samarqandni Zarafshonning yuqori oqimi bo‘ylab Sug‘dning yirik markazlaridan biri - Panjikent bilan bog‘lagan savdo-tranzit yo‘li orqali Toharistonning shimoliy hududlari bilan savdo-sotiq aloqalari amalga oshirilgan.

Shimoliy yo‘nalishda vohaning qadimiy mudofaa inshooti Kampirdevol tizimiga kiruvchi Katvondiza[6:16-19-b] savdo markazi Sirdaryo o‘rta va quyi etaklari bilan savdo jarayonlarida muhim o‘rin tutgan. Sharqiy yo‘nalishdagi yirik savdo markazlari Barkat, Xushufag‘n, Burnashad orqali savdo-tranzit yo‘llari Ustrushonaga, Sirdaryo bo‘yidagi Xo‘jandga hamda Farg‘ona vodiysiga, shuningdek, Choch o‘lkasiga olib chiqqan. Ushbu savdo-tranzit yo‘llari Sug‘dning mazkur davrdagi faol savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga



oshrishda hamda mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojida muhim ahamiyat kasb etgan.

Sug'diyona geografik tushunchasi bilan antik mualliflarda Ustrushona ham birlashtiriladi[7:15-b]. Haqiqatan ham uning aholisi sug'diy bo'lgan. Biroq Ustrushona – bu Samarqand va Xujand oralig'idagi viloyat bo'lib, Farg'ona, Sug'd, Choch va Baqtriya o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilgan. Ustrushona Turkiston tizma tog'laridan shimolroqdagi, Jizzaxdan to Xujandgacha bo'lgan katta hududni, Turkiston tizma tog'laridan janubdagi Turkiston tizma tog'lari va Hisor tizma tog'lari o'rtasidagi tog'li o'lkalarni, egallagan[8:189-b].

X.Muhamedovning fikricha, qadimgi Sug'd va Ustrushonadagi Kanpirdevorlar qoldiqlari 1957-1959 yillardayoq o'rganilgan bo'lib, shuni tasdiqlashga imkon berdiki, qadimgi Sug'd va Ustrushonadagi Kanpirdevorlar bir-biri bilan birlashadi va nafaqat alohida dehqonchilik vohalarini, balki butun mamlakatni ham himoya qiladigan yagona mudofaa tizimini tashkil qiladi. X.Muhamedov o'z maqolasida Sug'd va Ustrushona kabi qadimgi vohalar atrofidagi Kanpir-devorlarning joylashish sxemasii tuzib keltirdi[9:38-b]. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Qadimgi Buxoro vohasidagi "Kanpirak" devori Sug'd-Jizzax vohasidagi "Kanpirdevor" bilan birlashgani, va qadimgi Sug'ddagi yagona mudofaa devorini tashkil etgani haqidagi taxminlar to'g'ri ekanligi degan xulosa chiqarilgan edi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etib o'tish mumkinki, turkiy sulolalar hukmronligining o'rnatilishi Sug'dning savdo-iqtisodiy aloqalari rivojiga zamin yaratdi. Turk xoqonligi va Sug'd savdo ahlining mushtarak manfaatlari esa Sug'dda hunarmandchilik ishlab chiqarishining taraqqiy etishiga hamda xalqaro savdo-sotiq jarayonlarida yuqori mavqe egallagan sug'diy tujjorlarning ilk o'rta asrlar davrida bu borada katta yutuqlarga erishishiga olib keldi. Sug'd savdogarlari faol savdo-iqtisodiy aloqalar olib borish bilan bir qatorda mazkur davr madaniy yutuqlarining keng yoyilishida ham muhim o'rin egalladilar.

Xullas, Sug'd va Ustrushonadagi madaniyatlarning o'zaro bir birlariga bog'liqligini xalq afsonalari, qahramonlik dostonlari, mifologiya va atrofdagi hayot tashkil etgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Б. 136
2. Ғойибов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020. Б.16.
3. Ахунбабаев Х.Г. Древний Кабуданжакет (к вопросу локализации, генетика этапов развития раннефеодалных владений и средневековых рустаків Самаркандского Согда // Археология Средней Азии. Тезисы докладов. Т., 1990. С.26-27.
4. Эшов Б.Ж. Милоддан аввалги VII- IV асрларда Суғдиёна тарихи ва маданияти: Тарих фанлари номз.дисс... - Тошкент, 1999. Б.96-111.
5. Бичурин Н.Я(Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Часть II. - Алматы: Ылым,1998. С.251.
6. Ахунбабаев Х.Г. Рустаки и селения Самарканда на пути в Шаш и Фергану // Буюк Ипак йўлидаги Марказий Осиё шаҳарлари: Илмий-амалий анжуман мат. - Самарқанд,1994. - Б. 16-19.
7. Негматов Н. Н. Ходжент и Уструшана в древности и средневековье (сер. I тыс. до н.э. – I тыс. н.э.). Автореф. дис. ... д.и.н. М., 1968. С. 15.
8. Смирнова О. И. Археологические разведки в Уструшане в 1950 г. // МИА. № 37. 1953. С. 189.
9. Мухамедов Х. Из истории древних оборонительных стен вокруг оазисов Узбекистана. «Стена Канпирак» Древнебухарского оазиса. По историко-археологическим материалам. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд.ист.н. Т., 1961. С. 38.

**ILMIY NASHRLAR MARKAZI**